



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyun

VII-11-72-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 dekabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida berilgan topshiriqlar bo‘yicha AT Xalq banki Payshanba BX tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-149-sonli qarori ijrosi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 16-dekabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minalash maqsadida hamda xalq deputatlari tuman Kengashining O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi guruhining taklif va fikr mulohazalarini inobatga olib, Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Payshanba bank xizmatlar markazi rahbari U.Xoldorovning hisobotini muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n birinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida berilgan topshiriqlar bo‘yicha Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Payshanba bank xizmatlar markazi rahbari U.Xoldorov tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Zavqiyyev), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Raximov), tumandagi tijorat banklari (U.Xoldorov, F.Tolibov), mahallalardagi hokim yordamchilari bilan birlgilikda:

- ajratilayotgan kreditlar qonun talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minalash;
- imtiyozli kreditlar loyihalarning to‘liq ishga tushirilishi hamda kelgusida ushbu loyihalarning samarali ishlashi bo‘yicha monitoringni yo‘lga qo‘yib, nazorat olib borish choralarini ko‘rish;

-tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha tovarlarning haqiqatda olib kelinganligi va ulardan foydalanish ishlarining samarali tashkil qilinganligini joyida monitoring qilinishini tashkil etish;

-ajratilgan kreditlar bo‘yicha o‘rnatilgan muddatlarda joriy monitoring ishlarini amalga oshirilishini ta’minlash;

-monitoring natijasiga ko‘ra aniqlangan salbiy holatlarni (biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilmasligi, garov mulki holatlari va boshqalar) bartaraf etish yuzasidan tegishli choralarni ko‘rish;

-kreditning asosiy va foizini to‘lash muddati 1 (bir) oy muddatga kechiktirilgan kreditlar bo‘yicha qarzdorlarga ogohlantirish xatlari jo‘natib borilishini ta’minlash;

-oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlash va nazorat qilib borish;

-imtiyozli kredit ajratish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosa va tavsiyanomalarini berishda avval berilgan kreditlarning so‘ndirilishi hisobidan shakllanadigan resurslar doirasida berilishini inobatga olish;

-tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha mavjud muammolarni joyida hal qilish hamda qisqa muddatlarda loyihalarning kredit yig‘ma jildlarini shakllantirib, moliyalashtirish tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov) hamda “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov) sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tahliliy va tanqidiy yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qaror ijrosi nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (M.Zavqiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH